V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI [1)]

Foyda. Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan 47 766 111,1 mln. so‘m miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylari bilan solishtirilganda, foyda hajmi 17 362 366,8 mln. so‘m yoki 57,1 foizga oshdi.

2024- yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalari

mln. so‘m

	Foyda, zarar (+, -)	*O‘sish sur‘ati, % da*
Jami	**47 766 111,1**	**157,1**
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	5 058 426,6	163,3
Ishlab chiqaradigan sanoat	42 795 438,7	156,8
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	- 121 449,1	-
Qurilish	7 411,2	85,9
Savdo	12 587,3	32,7
Tashish va saqlash	9 746,1	5,7 m.
Suv bilan ta‘minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	-4 127,4	-
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	-4 467,6	-
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	-	-
Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	102,6	2,7 m.
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 320,8	-
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta’minot	-	-
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	11 122,0	113,5

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga 42 795 438,7 mln. so‘mga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

[1)] *Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

korxonalariga 5 058 426,6 mln. so‘mga, qurilish korxonalariga 7 411,2 mln. so‘mga, tashish va saqlash 9 746,1 mln. so‘mga, boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish korxonalariga 102,6 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalariga minus-121 449,1 mln. so‘m, suv bilan ta’minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizasiya qilish korxonalariga minus – 4 127,4 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

2024-yil yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari

	Foyda, zarar (+, -) mln. so‘m	***O‘sish sur‘ati, % da***
Jami	**47 766 111,1**	**157,1**
Navoiy sh.	47 077 098,4	156,9
Zarafshon sh.	2 725,7	13,5 m.
G‘ozg‘on sh.	-	-
Karmana t.	498 217,5	171,0
Konimex t.	3 002,7	-
Qiziltepa t.	14 988,2	103,7
Navbahor t.	27 530,6	118,0
Nurota t.	13 946,8	67,6
Tomdi t.	92 415,6	2,9 m.
Uchquduq t.	-	-
Xatirchi t.	36 185,6	92,9

2024- yil yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari *(2023- yil yanvar- noyabrga nisbatan, % da)*



Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy shaharda 47 077 098,4 mln. so‘m, Karmana tumanida 498 217,5 mln. so‘m, Tomdi tumanida 92 415,6 mln. so‘m, Xatirchi tumanida 36 185,6 mln. so‘m, Navbahor tumanida 27 530,6 mln. so‘m, Qiziltepa tumanida 14 988,2 mln. so‘m, Nurota tumanida 13 946,8 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

Zarar. 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida 6 ta korxona 138 750,3 mln. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi. Zararning asosiy qismi davlat va ho‘jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kirmagan tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	*Zarar summasi*	
		mln. so‘m	*jamiga nisbatan, % da*
Jami	**6**	**138 750,3**	**100,0**
Ishlab chiqaradigan sanoat	1	1,6	-
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	-	-	-
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni Kondisiyalash	1	128 349,1	92,5
Suv bilan ta’minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizasiya qilish	1	4 127,4	3,0
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash	1	1 099,8	0,8
Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	1	2,2	-
Ko‘chmas mulk bilan operasiyalar	1	5 170,2	3,7

2024- yil yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	*Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi, % da*	*Zarar summasi, mln. so‘m*
Jami	**6**	**100,0**	**138 750,3**
Navoiy shashri	4	96,3	133 578,4
Karmana tumani	1	3,7	5 170,3
Xatirchi tumani	1	-	1,6

Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati[1)]

2024-yil 1-dekabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 14 806 691,4 mln. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan – 112 691,6 mln. so‘m yoki jami qarzdorlikning 0,8 foizi.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2023-yil 1-dekabriga nisbatan solishtirganimizda 82,2 foizni, jami debitor qarzdorlik 2023-yil 1 dekabriga nisbatan 14,8 foizni tashkil qildi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda debitor qarzdorligi yuqori Navoiy shahar 9 229 497,9 mln. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 62,3 %), Karmana tumani 5 226 382,4 mln. so‘m (35,3 %), Navbahor tumani 108 740,1 mln. so‘m (0,7 %), Xatirchi tumani 117 661,8 mln. so‘m (0,8 %), Konimex tumani 63 686,9 mln. so‘m (0,4 %) to‘g‘ri keldi.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Tomdi tumani 31 503,2 mln. so‘m (0,2 %) Qiziltepa tumani 16 411,1 mln. so‘m (0,1 foiz), Nurota tumani 9 106,6 mln. so‘m (0,05 %), Zarafshon shahri 1 449,8 mln. so‘m (0,01 %) ga pastligini ko‘rish mumkin.

[1)] *Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

2024- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mln.so‘m	*undan:*			*Muddati o‘tgan qarzdor-likning ulushi, % da*
		xaridor va buyurtma-chilar	*etkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar*	*ichki idoraviy*	
Jami	**112 691,6**	**111 600,1**	**209,7**	**-**	**100,0**
Ishlab chiqaradigan sanoat	110 796,3	110 531,2	209,7	-	98,3
Tashish va saqlash	1 895,3	1 069,0	-	-	1,7

2024-yil 1-dekabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 14 327 962,0 mln. so‘m, shundan muddati o‘tgan – 1 255 076,0 mln. so‘m yoki jami kreditor qarzdorlikning 8,8 foizni tashkil etdi.

2024- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mln. so‘m	*undan:*					*Mudda-ti o‘tgan qarzdorlik-ning ulushi, % da*
		etkazib beruvchi lar va pudrat-chilarga	*olingan avanslar*	*davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar*	*ichki idoravi y*	*mehnat ga haq to‘lash*	
Jami	**1 255 076,0**	**1 255 076,0**	**-**	**-**	**-**	**-**	**100,0**
Ishlab chiqaradigan sanoat	1 255 076,0	1 255 076,0	-	-	-	-	100,0
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	-	-	-	-	-	-	-

2024- yil 1- dekabr holatiga jami kreditor qarzdorlikning debitorlikdan kamayishi 478 729,3 mln. so‘mni tashkil qildi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda kreditor qarzdorlik kamayishi Karmana tumanida 4 020 041,7 mln. so‘m, Konimex tumanida 36 677,0 mln. so‘m hamda Qiziltepa tumanida – 4 471,5mln. so‘mga to‘g‘ri keldi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Debitorlik qarzlar – xaridorlar va buyurtmachilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar, byudjet va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar, yig‘imlar va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo‘yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi.

Kreditorlik qarzlar – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz, sug‘urta bo‘yicha qarz, davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz, ta’sischilarga qarzlar, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlar va boshqa kreditorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi.

Daromad (foyda) solig‘i to‘lagunga qadar foyda (zarar) – korxona va tashkilotlarning barcha xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig‘indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo‘shimcha qiymat solig‘i hamda aksiz solig‘ini qo‘shgan holda.

Muddati o‘tgan qarzlar – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so‘ndirilmagan qarzning umumiy summasi.